

меҳнат ресурслари салоҳиятидан самарали фойдаланиш устувор вазифалардан саналади. Айниқса, 2020 йилдан бошлаб кузатилаётган коронавирус пандемияси пайтида меҳнат бозорида ишсизликнинг ортиши, натижада аҳолининг камбағал қатлами сонининг кўпайиши каби “занжирли” муаммолар соҳада таъсирчан ҳамда изчил чораларни амалга оширишга туртки бўлди.

MILLIY IQTISODIYOTDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

Gafurova Umida Fatixovna, k.o‘q.

“Moliya-kredit” kafedrasi, Toshkent moliya instituti

Globalashuv va keskin raqobatchilik kuchaygan bugungi davrda mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini uning jahon xo‘jaligi munosabatlariga faol ishtirokisiz tasavvur qilish qiyin. Xalqaro savdo-sotiq bilan bir qatorda bugungi kunda mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro samarali hamkorlik asosida amalga oshiriladigan xalqaro investitsion oqimlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘z navbatida, xorijiy investitsiyalari rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurish sur‘atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Eng muhim yo‘nalish sifatida xorijiy investitsiyalarini jalb etish asosan u yoki bu mamlakatda olib borilayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga bog‘liq bo‘ladi. Xorijiy investitsiyalari ham makrodarajada ham mikrodarajada muhim rol o‘ynab, u alohida xo‘jalik yuritish subyekti va umuman, mamlakatning kelajagini aniqlaydi va iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarini jalb etishga katta e‘tibor qaratilishi natijasida iqtisodiyotning barqaror va yuqori sur‘atlarda o‘sishi ta‘minlanmoqda. Xorijiy investitsiyalarini respublika iqtisodiyotiga jalb etishni yanada kuchaytirish mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish manbasi va sharti sifatidagi ishbilarmonlik muhitini yaratishning zaruriy omili sanaladi.

Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini faollashtiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, risk darajasi yuqori bo‘ladi¹. Bu esa, investitsiya qabul qiluvchi tomon sarf-xarajatlarining o‘sishiga olib keladi. Investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

¹ Elvira Sojli, Wing Wah Tham. “The Impact of Foreign Government Investments: Sovereign Wealth Fund Investments in the United States” In Institutional Investors in Global Capital Markets. Published online: 8 March 2015; 207-243. www.scopus.com



MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

**Xalqaro ilmiy-
amaliy anjuman
materiallari to'plami**

2022-yil 27-may

II qism

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

“MOLIYA” KAFEDRASI

**MOLIYA TIZIMINI
RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI**

**xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami
27-may 2022-yil**

(II QISM)

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ
ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ**

**материалы международной
научно-практической конференции
27 мая 2022 года**

(ЧАСТЬ II)

**MODERN TENDENCIES AND PROSPECTS
OF FINANCIAL SYSTEM DEVELOPMENT**

**materials of the international
scientific and practical conference
May 27, 2022**

(CHAPTER II)

ТОШКЕНТ-2022